


QURILISH ISHLARI

2019 yil yanvar-iyul

2019 yil yanvar-iyul oylarida Farg'ona viloyatida jami **2 191,7** mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **112,4%** ni tashkil etdi.

Farg'ona viloyatida qurilish ishlari hajmi



Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **236,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda **2,2** martaga ko'p ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **10,8%** ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan **5,4 %** punktga ko'paygan.


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **61,8 %** to`g`ri kelib, ular hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **110,6 %**ni tashkil etgan holda **1 354,1** mlrd. so`m miqdorida qayd etildi.


Norasmiy sektor hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **4,1 %** punktga kamayib, **27,4 %**ni tashkil etdi va **600,7** mlrd. so`m miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda **96,5 %**ni tashkil etgani kuzatildi.

Davlat va nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar bo'yicha qurilish ishlari


2019 yil (yanvar-iyul)

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **123,7** mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **5,6%** ni tashkil etdi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **2 068,1** mlrd.so'm ishlar bajarilib, jami qurilish ishlari hajmining **94,4%** ni tashkil etdi.







Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo`yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **73,2 %** yoki **1 603,6 mlrd. so`m** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarini yaratishga qaratilgan.



Yirik qurilish tashkilotlari bo`yicha yangi qurilish hisobidan **144,3 mlrd. so`m** ishlar bajarilib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan **174,7 %** tashkil etdi.



Norasmiy sektor hissasiga **542,3 mlrd. so`m** yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan **97,1 %** yangi qurilish bo`yicha ishlar bajarildi.



Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan **755,6 mlrd. so`m**, yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan **109,9 %** yangi qurilish ishlari bo`yicha ishlar bajarildi.

Hududlar bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari

2019 yil (yanvar-iyul)

No	Shahar tumanlar	2018 yil yanvar-iyul (mlrd, so'm)	2019 yil yanvar-iyul (mlrd, so'm)	O'tgan yilga nisbatan (%)	Jamiga nisbatan ulushi (%) da
Viloyat bo'yicha jami:	1655,2	2191,7	112,4	100,0	
1	Farg'ona shahar	357,1	474,2	112,9	21,6
2	Qo'qon shahar	173,2	209,6	102,8	9,6
3	Quvasoy shahar	130,0	179,9	117,7	8,2
4	Marg'ilon shahar	130,0	197,5	129,0	9,0
5	Oltiariq tumani	54,0	101,7	159,4	4,6
6	Qo'shtepa tumani	71,5	94,1	111,2	4,3
7	Bag'dod tumani	104,9	81,9	66,4	3,7
8	Buvayda tumani	46,5	50,9	92,7	2,3
9	Beshariq tumani	40,1	88,5	187,2	4,0
10	Quva tumani	71,1	110,3	131,3	5,0
11	Uchko'prik tumani	75,8	80,2	90,0	3,7
12	Rishton tumani	37,8	43,3	96,9	2,0
13	So'x tumani	29,9	27,4	77,8	1,3
14	Toshloq tumani	46,0	52,5	96,6	2,4
15	O'zbekiston tumani	33,2	41,0	104,9	1,9
16	Farg'ona tumani	116,6	45,4	33,1	2,1
17	Dang'ara tumani	69,6	145,3	176,3	6,6
18	Furqat tumani	40,4	65,0	135,9	3,0
19	Yozyovon tumani	27,5	103,0	318,6	4,7

Viloyatda Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


(jamiga nisbatan % da)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 3,3 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,2 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,5 % puktga ko'payib, 60,3 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,8 % punktga kamayib, 3,7 %ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **33,6 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **20,1 %** punktga ko'paydi..

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **60,8 %** (**20,0 %** punktga kamayish) va norasmiy sektoring ulushi **5,6 %ni** (**0,1 %** punktga kamayish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


(jamiga nisbatan % da)



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **3,6 %** punktga ko'paydi va **28,7 %**ni tashkil etdi. Qolgan **71,3 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **3,6 %** punktga kamaydi.

Jami qurilish ishlarida hududlarning ulushi

(jamiga nisbatan % da)




Hududlar bo`yicha qurilish ishlari tarkibida Farg'ona shahri qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar Viloyat bo`yicha jami hajmning **21,6 %**ini tashkil etdi. Bu **474,3 mlrd. so`m** qurilish ishlari demakdir. Bunday katta hajmdagi qurilish ishlari Viloyat bo`yicha eng yirik qurilish tashkilotlarining hamda ko`plab kichik qurilish korxonalari va mikrofirmalarni Farg'ona shahrida joylashgani bilan izohlanadi. Shu bilan birga mazkur hududda

olib borilayotgan keng ko`lamli qurilish ishlari, davlat dasturlari doirasida va boshqa sotish uchun mo`ljallangan ko`plab turar-joylarning qurilishi jadal olib borilayotganligi mazkur hududdagi qurilish ishlari hajmining katta bo`lishiga sabab bo`lmoqda.


Hududlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'atlari

(% da)



Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



**Farg'ona viloyati statistika
boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

U.Karimov

Aloqa telefoni:

(73) 241-72-75